

**O‘ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASIDA MALAKALI KADRLAR
TAYYORLASH VA RIVOJLANTIRISH UCHUN BERILGAN TAKLIFLAR**

Makhmudov Jaloliddin

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi

Fakultet: Turizim

Guruh: TOUE-3IU

Ilmiy rahbar: Nurmatova Sitora

Anotatsiya: Ushbu maqolada turizm hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan sohaga aylanayotganligi va turizmni rivojlantirish uchun malakali mutaxassislar, kadrlarni yetishtirib chiqarish nafaqat boshqa mintaqalarda balki mamlakatimizda ham dolzarb mavzuga aylanib borayotganligi haqida so‘z boradi. Shu sababli va turizm sohasida taqsil olayotgan talabalarni kelgusida amaliyot va ish o‘rni bilan ta‘minlashga doir g‘oya va ko‘nikmalar maqolada ilgari surilgan. Chunonchi yangi OTM, kollej-litsey va shunga o‘xshash ta‘lim muassasalarini tashkil etib ularga shu soha obyektlarini biriktirish yoki ularni xususiylashtirish taklifi berilgan. Shuningdek maqolaning ilmiy yo‘nalishini nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etishda ilmiy abstraksiyalash usulidan foydalanilgan bo‘lsa, turizm boyicha tayyolanayotgan kadrlarning zamonaviy holatini tahlil qilishda va ularga taklif berish uchun miqdoriy va sifat usulidan foydalanilgan.

KIRISH

Hozirgi kunda ish bilan ta‘minlovchi sohalar qatorida kuchli yigirmalikka kiruvchi, mamlakatlar byudjetiga milliardlab foyda olib kelayotgan madaniyatlar almashinuviga ta‘sir qiluvchi industriya hisoblanuvchi turizm yildan-yilga rivojlanib, raqamlardagi ko‘rsatkichlari nollar bilan boyimoqda. Xususan respublikamizni ham chetlab o‘tgan yo‘q.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oz nutqida: “Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur buni davrning o‘zi taqozo etmoqda. O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma‘lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma‘naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta deb takidlagan Prezidentimiz. Bu sohani rivojlantirish uchun strategiya tuzish, yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarishni maqsad qilib qo‘yildi va qarorlar qabul qilindi. Takidlab o‘tilganidek kadrlar yetishtirib chiqarish yoki mavjud kadrlarni qayta tayyorlash vazifasi yo‘lida OTMlarda yangi sohalar ochilishi bu maqsad yo‘lida ilk qadamlar bo‘ldi.

Tarixga yuzlansak Shveytsariya turizm va mehmondo‘stlik maktabi tarixda birinchilardan bo‘lib mehmonxona xususan turizm uchun malakali kadrlar yetishtirib chiqaruvchi ilk o‘quv muassasasi hisoblanadi. Maktab 1966-yilda tashkil etilgan va 2013-yilda EHL guruhiga qo‘shilgan. Har bir semestrda 30 xil davlatdan o‘rtacha 350 nafar talaba ta‘lim oladi. Mehmonxona boshqaruvi maktabi asosiy kasbiy ta‘lim va oliy ma‘lumotdan tortib fan bakalavriat darajasigacha bo‘lgan federal tan olingan malakalarni



qamrab olgan. EHL Campus Passugg 19-asrda qurilgan kurort mehmonxonasi atrofida parpo etilgan bo'lib, turar joy va beshta ichki restoranni taklif qiluvchi bir nechta binolarni o'z ichiga oladi. E'tiborga molik tarafi shundaki dastlabki ta'lim berish maskanlari turizm obyektlariga bog'langan ya'ni shu joy uchun alohida inson resurslarini yetkazib bergan. Hozirgi kunga kelib ham turizm rivojlangan davlatlarda shu metodika qo'llanilib kelinmoqda.


O'zbekistonda ham shunday usuldagi ta'lim muassasasi boshqa yo'nalishlarda bor va samarali xizmat qilib kelmoqda. Chunonchi, AKFA universiteti shunday metodikani qo'llab kelmoqda. Tibbiyot sohasiga ixtisoslashgan bu universitetning shu nomdagi xususiy klinikaga birlashtirilgan bu uslub uchun yaqqol misol bo'la oladi. Tibbiyot va boshqa yo'nalishlar uchun amaliyot klinikalarda o'tkaziladi va ish o'rni ham yaratiladi.

Talab shundaki bu strukturani turizm salohiyati rivojlanib borayotgan mintaqalar misolida turizm segmenti uchun ham sinab ko'rishdir.

ASOSIY QISIM

Turizm sohasi hozirgi kunda jadal rivojlanib, jahon iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi industriya hisoblanadi. Bu sanoatning maxsuloti ko'ngilochar joylar, mexmonxonalar, madaniy meros obidalari va insonning sayohat qilishida ishtirok etuvchi xizmat va maxsulotlar hisoblanadi. Sayohatchilar (turistlar)-shu sohaning iste'molchilari sanaladi. BMT Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda dunyo bo'ylab 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2016-yil yakuniga ko'ra bu ko'rsatkich 1 milliard 235 million nafarga, ya'ni 3,9 foizga oshgan. 2015-yilda sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati qariyb 1,5 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. 2016-2017 yillarda bu raqamlarda katta farqni ko'rish mumkin. Raqamlardan shuni ko'rsatadiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2015 yilda eng ko'p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o'ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin. Bu raqamlar rivojlangan davlatlarni turizm sohasini reytingini anchagina baland pog'onlarga olib chiqmoqda. Bu reytingda O'zbekiston 150-o'rinni egallamoqda. Hayratlanarlisi shundaki, 140 ta sayyohlik maskani bilan 85-o'rinni Qozog'iston egallagan. O'zbekiston 7300 dan ortiq madaniy qadamjolar va ulardan 200 tasi YuNeSKO ning madaniy merosi ro'yhatiga kiritilgan obyektlarga ega bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlari ichida oxirgi o'rinni egallab turibti.





1-rasm. O‘zbekiston turizm boshqarmasi.

Bundan ko‘rinib turibdiki yetarlicha resurslardan foydalanib industriyani rivojlantiruvchi malakali mutaxassislar yetishmasligi va marketing rivojlanishi ortidan ko‘plab tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan turistlar uchun sifatli xizmat ko‘rsatish asosiy muammolardan bo‘lishi mumkin. Bu ko‘rsatkich 7.5 million turist (2018) uchun tafovut yaratishi mumkin.

Shuni aytib o‘tish joizki, hozirgi kunda O‘zbekistonda eng ko‘p abituriyentlarni jalb qilayotgan sohalar yurisprudensiya, meditsina, harbiy ta‘lim yo‘nalishlari, agro yo‘nalishlar hisoblanadi. Bunga sabablar ishga joylashish bilan bog‘liq ishonchga borib taqaladi. Turizmni bu qatorga qo‘shish uchun abituriyentlarni jalb qilishda ularga amaliyot va ish bilan joylashishda uchrayotgan muammolarni o‘rganib chiqib va shu muammolarga yechimlarga asoslangan takliflarni tadbiiq etishimiz lozim.

Bu masalaga yechim sifatida OTMLar sonini ko‘paytish va ularni shu soha obyektlariga biriktirish taklifi beriladi. Ya‘ni bu ta‘lim muassasalarini sayohat maskanlari, madaniy meros obyektlariga yaqin joyda qurish; turizmga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarni (taomlanish joylari, turar joylar, transportlar xizmati va hokazo) qurish yoki xususiylashtirish ko‘zda tutilgan. Bunga misol sifatida boshqa yo‘nalishda qo‘llanilib muvaffaqiyatga erishib kelayotgan AKFA universiteti olishimiz mumkin. Talabar uchun amaliyot va ish o‘rnini tashkillashtirish uchun sharoitlar yaratilgan.

Berilgan takliflarni boshqa rivojlangan mamlakatlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak ta‘lim muassasasi sayohat maskanlarida joylashgan Antaliya Turizm Akademiyasi misol bo‘la oladi. Bu o‘quv maskani Turkiyaning turizm avj olgan joyida ya‘ni Antaliyada joylashgan.

Nomi Davlati

EHL- Ecole Hôtelière de Lausanne Shveytsariya

Nevada universiteti, Las-Vegas, AQSH

Les Roches Global Hospitality Education Shveytsariya



Shveysariya mehmonxona boshqaruvi maktabi Shveysariya
 Gaagadagi mehmonxona maktabi Niderlandiya
 Montreux mehmonxona instituti Shveysariya
 Sezar Ritz kollejlari Shveysariya
 Gongkong politexnika universiteti Gongkong SAR
 IHTTI mehmonxona boshqaruvi maktabi, Shveysariya
 Glion oliy ta’lim instituti, Shveysariya

| Nomi | Davlati |
|--|--------------|
| EHL- Ecole Hôtelière de Lausanne | Shveysariya |
| Nevada universiteti, Las-Vegas, | AQSH |
| Les Roches Global Hospitality Education | Shveysariya |
| Shveysariya mehmonxona boshqaruvi maktabi | Shveysariya |
| Gaagadagi mehmonxona maktabi | Niderlandiya |
| Montreux mehmonxona instituti | Shveysariya |
| Sezar Ritz kollejlari | Shveysariya |
| Gongkong politexnika universiteti | Gongkong SAR |
| IHTTI mehmonxona boshqaruvi maktabi, | Shveysariya |
| Glion oliy ta’lim instituti, | Shveysariya |

1-jadval. Dunyoning eng yaxshi turizm institutlari yettiligi

Eti’borga molik tarafi shundaki, turizmga xizmat ko’rsatishda kerakli inson resurslari bozorida Shveysariya ustunlik qilmoqda. Bu biz uchun tayyor andoza bo’la oladi. Shveysariya bilan ta’lim tizimi bo’yicha kelishuvlar asosida maktablar, kollej-litsey, oliy ta’lim muassasalari ochilishi turizmni rivojlantirish yo’lida takliflarning eng yaxshisi bo’la oladi.

Hozirgi kunda institut (universitetlar) aro reyting ham abituriyentlar orasida katta obro’ga ega. Afsuski dunyoning eng yaxshi oliy ta’lim muassasalarining mingtaligida O’zbekistonning hech qaysi universiteti yoki instituti o’rin egallamagan. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish borasida ham boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan orqadamiz. Oliy o’quv yurtlari tarbiyalanuvchilari uchun mamlakatimizdagi OTMlarni reytingini yuqoriga ko’tarish, yuqori mingtalikda o’zi ta’lim olayotgan o’quv dargohini ko’rish ularga nafaqat motivatsiya balkim barcha sohalarida o’qish uchun ham ishonch ham beradi. Oliy ta’lim uchun 1000 ta eng yaxshi qo’shilish juda mashaqqatli mehnat, fidoyilik va mukammallikka erishish uchun uzoq muddatli sadoqatni talab qiladigan murakkab vazifadir. Biroq, oliy ta’lim uchun eng yaxshi 1000 ta institutga qo’shilish imkoniyatini oshirishning ba’zi usullarini ko’rib chiqamiz.

Top-1000 ga kirish uchun takliflar



● Akademik mukammallikka e'tibor qaratish: Oliy ta'lim uchun eng yaxshi muassasa bo'lishning eng muhim omili – akademik mukammallik. Bunga eng yaxshi professor-o'qituvchilarni yollash, qiyin va qat'iy o'quv dasturlarini taklif qilish va akademik yutuqlar uchun yuqori standartlarni saqlash kiradi.

● Kuchli obro'ga ega bo'lish: kuchli obro'-e'tibor eng yaxshi talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlarni jalb qilish uchun zarurdir. Ilg'or tadqiqotlar olib borish, ajoyib o'quv dasturlarini taklif qilish va talabalarga ajoyib xizmatlarni taqdim etish orqali kuchli obro'ga ega bo'lish mumkin.

● Infratuzilmaga sarmoya kiritish: Muassasa infratuzilmasining sifati uning eng yaxshi talabalar va professor-o'qituvchilarni jalb qilish qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ta'lim tajribasini oshiradigan zamonaviy jihozlar, zamonaviy texnologiyalar va boshqa resurslarga sarmoya kiritish zarur.

● Innovatsiya madaniyatini tarbiyalash: professor-o'qituvchilar va talabalarni innovatsion tadqiqotlar bilan shug'ullanishga va institut obro'si va akademik yuksaklikka hissa qo'shadigan yangi g'oyalarni ishlab chiqishga undash.

● Kuchli hamkorlikni yo'lga qo'yish: Ta'lim muassasasining tadqiqot imkoniyatlarini oshirish va talabalarga qimmatli ta'lim imkoniyatlarini taqdim etish uchun boshqa muassasalar, sanoat va hukumat bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish.

● Xilma-xillik va inklyuzivlikka e'tibor qaratish: Yuqori iste'dodlarni jalb qilish va faol ta'lim hamjamiyatini yaratish uchun xilma-xil va inklyuziv muhit muhim ahamiyatga ega. Turli xillikni uning barcha shakllarida qabul qilish va barcha talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun mehmondo'st va inklyuziv muhit yaratish kerak.

● Strategik rejani ishlab chiqish: Ta'lim muassasasini maqsadlari, vazifalari va eng yaxshi oliy ta'lim muassasasiga aylanish strategiyasini belgilab beruvchi uzoq muddatli strategik rejani ishlab chiqish zarur.

● Talabalar natijalariga e'tibor qaratish: Ta'lim muassasani talabalarga tanlagan kasblarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni taqdim etishini ta'minlash uchun bitiruv ko'rsatkichlari, bandlik darajasi va bitiruvdan keyingi muvaffaqiyat kabi talabalar natijalarini o'lchash va kuzatib borish talab etiladi.

● Bitiruvchilarni jalb qilish: muassasangiz uchun kuchli tarafdorlar va himoyachilar tarmog'ini yaratish uchun bitiruvchilar bilan hamkorlik qilish va ular bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish taklif etiladi. Bitiruvchilar qimmatli fikr-mulohazalarini taqdim etishlari, mablag' yig'ish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashlari va yangi talabalar va o'qituvchilarni jalb qilishda yordam berishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

turizm industriyasida malakali kadrlar tayyorlash va ularga amliyyot, ish o'rinlari yaratish uchun taklif va xulosalar.

1. Infratuzilmaga sarmoya kiritish: O'zbekiston turistlarni jalb qilish uchun bor resurslarni targ'ib qilib shu sohani rivojlantirish uchun malakali mutaxassislarni yetishtirib chiqaruvchi ta'lim muassasalariga sarmoya kiritish.



2. Andoza olish ya'ni shu yo'nalishdagi rivojlangan mamlakatlar bilan kelishuvlar asosida filiallar ochish yoki ularning foydalanayotga metodikalari asosida ta'lim muassasalarini tuzish taklifi berilgan.

3. Qurilishi ko'zda tutilgan infratuzilmalarni turizm markazlarida qurish yoki birlashtirish talabalar amaliyot uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

4. Yangi OTM, kollej-litsey va shunga o'xshash ta'lim muassasalarini tashkil etib ularga shu soha obyektlarini birlashtirish yoki ularni xususiyashtirish ham o'quvchilarni ish o'rni bilan ta'minlaydi.

5. OTMlar reytingini aniqlash: mavjud ta'lim muassasalarini reytingini aniqlash uchun xalqaro standartlardan foydalanish zarur.

6. SWOT analiz o'tkazib mavjud kamchiliklarni o'rnini to'ldirish yoki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish, imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun strategiya tuzish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamizdagi bor resurslardan oqilona foydalangan holda keyingi avlodga yetkazish, u orqali foyda olish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantiruvchi kadrlarni tayyorlash potensial muammolarga oqilona yechim hisoblanadi. Talab shundaki rivojlanib borayotgan industriyani bizda ham ommalashtirishga e'tibor qaratishdir. Ta'lim infratuzilmalariga sarmoya kiritish, rekonstruksiya qilish mamlakatimizda ommalashib va rivojlanib borayotgan turizm industriyasi uchun katta poydevor bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Travel Guide Uzbekistan – Tashkent: National Company Uzbekturizm 2003.
2. M.S.Azimovna Markaziy Osiyoda ekonometrik tadqiqot va modellashtirish jarayonining bosqichlari, Turizm menejmenti va moliyasi bo'yicha innovatsiyalar jurnali
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son Farmoni.
“Respublikaning turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2017 yil 4 maydagi PF-5033-son qarori.
5. “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori
9. Normatova, S. A., Botirov, M. T., Ruzmatova, K. K., & ugli Mamarasulov, J. O. Hygienic Basis for Contamination of Food Products and Production of Dairy Products Until 2030. International Journal of Health and Medical Sciences, 4(1), 123-128.
10. Botirov, M. T., Normatova, S. A., NIZAMETDINOVA, M., SHODMONOV, U., & MAMARASULOV, J. (2021). INFLUENCE OF OIL AND OIL PRODUCTS ON LIVING ORGANISMS AND METHODS OF SOIL PURIFICATION FROM OIL PRODUCTS. Asian Journal of Advances in Research, 28-32.



11. Mamarasulov, J. (2022). FABACEAE FAMILY IN FLORA IN THE FERGANA VALLEY, RARE SPECIES OF ASTRAGALUS. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(11), 117-119.

12. Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 216-219.

13. Abarjon o'g'li, A. A. (2022). SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-MUHITGA TA'SIRI. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(14), 70-73.

14. Madaminovna, K. S., Furkatovna, G. M., & Adakhamjon, A. (2023). SIGNIFICANCE OF SOIL FERTILITY IN FERGANA REGION. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1320-1324.

15. Akramov, A. (2022). USE OF DIDACTIC GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING ECOLOGICAL SCIENCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 559-562.

16. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.

17. Халматова, Ш Усманова, Т., & Акрамов, А (2022). Экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 547-554.

18. Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM. In Конференции.

ELEKTRON RESURLAR:

1. <https://www.prizident.uz>.
2. <https://www.wikipedia.org>.
3. <https://www.lex.uz>.
4. <https://www.elib.buxdu.uz>
5. www.kun.uz
6. www.globalscholarships.com

